ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQARISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	
МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ.....	2012
Садыков Жажонгир Насырджанович	



TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOIYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIQI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	



HUDUDIIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdulkarimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEKANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIYAVII NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	2260
Temirov Muradjon Najmiddinovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI	2266
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
KORXONALARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA GLOBAL BRENDLAR TAJRIBASI	2275
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
ESTIMATING DEMAND AND SUPPLY FOR COTTON-TEXTILE CLUSTER PRODUCTS	2281
Nasimov Bakhtiyor Vasievich	
MOLIYAVII HISOBOT AUDITINI REJALASHTIRISH JARAYONINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	2288
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR MOLIYAVII FAOLIYATIDA NATIJA SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	2292
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	
XORAZM VILOYATIDA YOSHLAR BANDLIGINI OSHIRISH ORQALI INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	2297
Yusubboyeva Dinora Quadrat qizi	
O'ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONINING JORIY HOLATI TAHLILI	2302
Umarova Malika Baxtiyarovna	
BARQAROR IQTISODIYOTNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINING SAMARADORLIGI	2311
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	2315
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
IJARANING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	2318
Djumayeva Guzal Axtamovna	



AGROSANOAT INNOVATSION MARKETING FAOLIYATI YURITISH AMALIYOTINING MILLIY XUSUSIYATLARI VA USTUVORLIKLARI TAHLILI.....	2324
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
BALIQCCHILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON IQTISODIY MUHITIDA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	2332
Rajapov Xayrulla Bekdurdievich	
TIJORAT BANKLARINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2338
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
RAQAMLI TURIZM TIZIMINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	2344
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISHDA KORXONAGA NISBATAN RAQOBAT BOSIMINI BAHOLASHNING IMITATSION MODEL (OLMALIQ KON METALLURGIYA KOMBINATI AJ KORXONASI MISOLIDA)	2348
Nazarova Sitorabonu Sharofiddinovna	
DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	2357
Ziyayeva Mukhtasar Mansurjanovna	
SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING IQLIM O'ZGARISHLARIGA TA'SIRI	2362
Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna	
FUNDAMENTALS OF FORMING ACCOUNTING POLICIES FOR LEASING COMPANIES BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS	2368
Baxadirov Alisher Komilovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH.....	2368
Jahongir Gadayev, Zarif Axrorov	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O'RNI	2372
Kasimova Zilola G'ulomiddin qizi	
СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОВАРНОЙ ПОЛИТИКИ НА ЗАРУБЕЖНЫХ РЫНКАХ	2386
Абдуллаев Азиз Курбанович	
XUSUSIY KAPITALNING OPTIMAL TARKIBINING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	2391
Qurbonov Xayrilla	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2399
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2404
Voxidov Oybek Roziqovich	
BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRILISHINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	2409
Muqimov Asrorjon Rasulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAROITIDA DDOS HUJUMLARIGA QARSHI SUN'IY INTELLEKT AGENTLARINI QO'LLASH.....	2413
Bekov Sanjar Nigmandjonovich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	2418
Begimova Dilshoda Komiljonovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA ESG INTEGRATSIYASI VA YASHIL SUG'URTA MAHSULOTLARINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	2424
Kadirov Raxim Karimovch	



ECONOMIC ASSESSMENT OF MEASURES TO REDUCE THE SHORTAGE OF FREIGHT WAGONS IN RAILWAY TRANSPORT.....	2429
Egamberdieva Khurshidakhon Alisherovna	
TIJORAT BANKLARDA OPERATSION RISKLARNI BOSHKARISHNING NAZARIY ASOSLARI	2435
Nishanov Shoazam Baxramovich	



TIJORAT BANKLARDA OPERATSION RISKLARNI BOSHKARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Nishanov Shoazam Baxramovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Bank va moliya” kafedrası iqtisod fanlari nomzodi, v.v.b., dosent

Email: shoazamnishanov@gmail.com

ORCID: 0009-0008-7713-2577

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida operatsion risklarni boshqarishning nazariy asoslari tadqiq etilgan. Operatsion risklarning iqtisodiy mohiyati, ularning yuzaga kelish manbalari hamda bank faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida operatsion risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va kamaytirish mexanizmlarining nazariy jihatlarini ochib berilgan. Shuningdek, bank tizimida operatsion risklarni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, yo'qotishlarni minimallashtirish hamda boshqaruv sifatini oshirishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan. Maqola xulosalarida tijorat banklarida operatsion risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, operatsion risklar, risklarni boshqarish, bank barqarorligi, ichki nazorat, risk menejment.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of operational risk management in commercial banks. The economic nature of operational risks, their sources, and factors influencing banking activities are analyzed using a systematic approach. The study highlights the theoretical aspects of identifying, assessing, monitoring, and mitigating operational risks. It is substantiated that effective operational risk management plays a crucial role in ensuring financial stability, minimizing losses, and improving the overall quality of bank management. The conclusions of the article provide scientific and practical recommendations aimed at enhancing the operational risk management system in commercial banks.

Key words: commercial banks, operational risks, risk management, financial stability, internal control, risk management system.

Аннотация. В статье исследованы теоретические основы управления операционными рисками в коммерческих банках. Проанализирована экономическая сущность операционных рисков, источники их возникновения и факторы воздействия на банковскую деятельность на основе системного подхода. В ходе исследования раскрыты теоретические аспекты идентификации, оценки, мониторинга и минимизации операционных рисков. Обосновано, что эффективное управление операционными рисками является важным условием обеспечения финансовой устойчивости банков, снижения потерь и повышения качества банковского управления. В заключении статьи представлены научно-практические предложения по совершенствованию системы управления операционными рисками в коммерческих банках.

Ключевые слова: коммерческие банки, операционные риски, управление рисками, финансовая устойчивость, внутренний контроль, риск-менеджмент.

KIRISH

Bugungi kunda moliya bozorlarining globallashuvi, bank xizmatlari ko'lamining kengayishi hamda raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi tijorat banklari faoliyatida risklar tabiatini sezilarli darajada murakkablashtirmoqda. Xususan, operatsion risklar banklarning kundalik faoliyatida yuzaga keladigan ichki jarayonlar, xodimlar, axborot tizimlari yoki tashqi omillar bilan bog'liq xatoliklar natijasida moliyaviy yo'qotishlarga olib keluvchi asosiy risk turlaridan biri sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, operatsion risklar nafaqat bankning moliyaviy barqarorligiga, balki uning obro'si, mijozlar ishonchi va umumiy risk profiliga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.



Tijorat banklarida operatsion risklarni boshqarish masalasi moliyaviy inqirozlar, texnologik uzilishlar, firibgarlik holatlari hamda inson omili bilan bog'liq xatolar kuchaygan sharoitda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bank amaliyotida kredit va bozor risklariga nisbatan ko'proq e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, operatsion risklarning yashirin va tizimli xarakterga egaligi ularni aniqlash, baholash va samarali boshqarishning nazariy asoslarini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Shu jihatdan, operatsion risklarni boshqarish tizimi bank faoliyatining uzluksizligini ta'minlash, ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va strategik barqarorlikka erishishning muhim vositasi hisoblanadi.

Mazkur maqolada tijorat banklarida operatsion risklarni boshqarishning nazariy asoslarini tadqiq etish, ushbu risklarning iqtisodiy mohiyati, tasnifi hamda ularni boshqarish konsepsiyalarini tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaraladi. Operatsion risklarni samarali boshqarish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan birga, moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish va bank boshqaruvi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida risklarni boshqarish masalalari moliyaviy institutlar barqarorligini ta'minlashda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda J. Hull tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank risklari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinib, operatsion risklar moliyaviy risklarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Muallif operatsion risklarni boshqarish bank kapitali yetarliligi, ichki nazorat va strategik boshqaruv bilan chambarchas bog'liq ekanligini asoslab beradi [1].

Moliyaviy risklarni miqdoriy baholash masalalarida P. Jorionning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda Value at Risk konsepsiyasi orqali turli risk turlarini baholash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Muallif operatsion risklarni an'anaviy statistik yondashuvlar orqali baholashning murakkabligini ta'kidlab, ularni kompleks risk menejment tizimi doirasida boshqarish zarurligini ko'rsatadi [2].

R. Crouhy, D. Galai va M. Mark tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda risk menejmentning institutsional asoslari chuqur tahlil qilinadi. Mualliflar banklarda risklarni boshqarish jarayonini strategik rejalashtirish, ichki siyosat va nazorat mexanizmlari bilan bog'liq holda yoritadi. Operatsion risklar ushbu tizimda alohida e'tibor talab qiluvchi, ko'pincha yashirin xarakterga ega bo'lgan risk turi sifatida baholanadi [3].

M. Power o'z tadqiqotlarida zamonaviy iqtisodiyotda risk tushunchasining kengayib borayotganini ta'kidlab, operatsion risklarni boshqarish masalasini institutsional ishonch va boshqaruv madaniyati bilan bog'laydi. Muallif fikricha, operatsion risklarning kuchayishi nazorat tizimlarining murakkablashuvi va tashkilot ichidagi axborot nomutanosibligi bilan izohlanadi [4].

Operatsion risklarni boshqarish bo'yicha eng muhim normativ-nazariy manbalardan biri Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar hisoblanadi. Ushbu hujjatda operatsion risklar ichki jarayonlar, xodimlar, tizimlar va tashqi hodisalar bilan bog'liq yo'qotishlar ehtimoli sifatida ta'riflanib, ularni boshqarish bank barqarorligining asosiy sharti ekanligi qayd etiladi [5].

Basel II kelishuvida operatsion risklar bank kapitali hisob-kitobida mustaqil risk turi sifatida e'tirof etilgan. Ushbu hujjatda operatsion risklarni baholash uchun bir nechta metodlar taklif etilib, banklarga o'z risk profiliga mos yondashuvni tanlash imkoniyati berilgan. Bu esa operatsion risklarni nazariy va amaliy jihatdan boshqarish imkoniyatlarini kengaytirgan [6].

Basel III doirasida esa operatsion risklarni boshqarish bank tizimining umumiy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq holda yanada kuchaytirilgan. Mazkur yondashuv banklarning ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash va risklarga nisbatan ehtiyotkorlik tamoyillarini kuchaytirishga qaratilgan [7].

P. Moosa tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda operatsion risklarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlar alohida tahlil qilinib, ushbu risklarning murakkab va noaniq xarakterga egaligi ta'kidlanadi. Muallif operatsion risklarni samarali boshqarish uchun statistik modellar bilan bir qatorda sifat tahliliga ham e'tibor qaratish zarurligini asoslaydi [8].

J. Lamning ilmiy ishlarida operatsion risklar korporativ risk menejment tizimining muhim elementi sifatida qaraladi. Muallif banklarda risklarni boshqarish faqat yo'qotishlarni kamaytirish emas, balki boshqaruv samaradorligini oshirish vositasi ekanligini ko'rsatadi [9].

A. McNeil, R. Frey va P. Embrechts tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda risklarni miqdoriy baholashning ilg'or modellari tahlil qilinib, operatsion risklar uchun an'anaviy modellarning cheklanganligi qayd etiladi. Ushbu yondashuv operatsion risklarni boshqarishda ehtimollik va ssenariy tahlilining muhimligini asoslab beradi [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida operatsion risklarni boshqarish jarayonini o'rganishda kompleks ilmiy metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot ma'lumotlari ochiq statistik manbalar, markaziy banklarning



rasmiy hisobotlari, tijorat banklarining moliyaviy va risk menejmentiga oid yillik hisobotlari, shuningdek, xalqaro moliya institutlari tomonidan e'lon qilingan tahliliy materiallar asosida shakllantirildi. Shuningdek, ilmiy maqolalar, monografiyalar va normativ-huquqiy hujjatlardagi nazariy qarashlardan foydalanildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida mantiqiy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Operatsion risklarning manbalari va ularning bank faoliyatiga ta'siri sifat jihatidan baholanib, mavjud boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi solishtirma tahlil orqali aniqlashtirildi. Statistik ma'lumotlar asosida operatsion risklar bilan bog'liq yo'qotishlar dinamikasi tahlil qilinib, nazariy xulosalar chiqarildi. Olingan natijalar operatsion risklarni boshqarishning ilmiy asoslarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatida operatsion risklar iqtisodiy mazmuni jihatidan bank operatsiyalarining barcha bosqichlariga singib ketgan murakkab va ko'p qirrali risk turi hisoblanadi. Operatsion risklar, asosan, ichki jarayonlarning nomukammalligi, xodimlar faoliyatidagi xatoliklar, axborot texnologiyalari tizimlaridagi nosozliklar hamda tashqi omillar ta'siri natijasida yuzaga keladi. Ushbu risklarning o'ziga xos jihati shundaki, ular ko'pincha oldindan aniq prognoz qilinmaydi va bank faoliyatiga bevosita yoki bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli operatsion risklarni samarali boshqarish tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Nazariy jihatdan operatsion risk tushunchasi bank risklari tizimida nisbatan kechroq shakllangan bo'lib, dastlab u kredit va bozor risklariga nisbatan ikkilamchi ahamiyatga ega deb qaralgan. Biroq global moliyaviy inqirozlar, bankrotlik holatlari va yirik moliyaviy yo'qotishlar tahlili operatsion risklarning bank tizimidagi real tahdid darajasini yaqqol namoyon etdi. Ayniqsa, texnologik jarayonlarning murakkablashuvi va bank xizmatlarining raqamlashtirilishi sharoitida operatsion risklarning miqyosi va ta'sir doirasi sezilarli darajada kengaydi.

Operatsion risklarni boshqarishning nazariy asoslari risk menejment konsepsiyasining umumiy tamoyillariga tayanadi. Ushbu jarayonda risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va minimallashtirish bosqichlari o'zaro uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Operatsion risklarni aniqlash jarayonida bank ichki faoliyatidagi zaif nuqtalar, jarayonlar o'rtasidagi nomuvofiqliklar, xodimlarning malaka darajasi hamda texnik infratuzilmaning ishonchiligi alohida e'tiborga olinadi. Bu bosqichda banklar ichki audit natijalari, insidentlar statistikasi va ichki nazorat hisobotlaridan keng foydalanadi.

Operatsion risklarni baholash nazariy jihatdan eng murakkab bosqichlardan biri bo'lib, u sifat va miqdoriy yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Sifat jihatidan baholashda risklarning ehtimolligi va ularning bank faoliyatiga mumkin bo'lgan ta'siri ekspert baholari orqali aniqlanadi. Miqdoriy baholash esa tarixiy ma'lumotlar asosida moliyaviy yo'qotishlar hajmini aniqlashga qaratiladi. Bunda statistik modellar, ehtimollik taqsimotlari va ssenariy tahlili usullaridan foydalaniladi. Nazariy nuqtayi nazardan, operatsion risklarni aniq miqdoriy baholash qiyin bo'lsa-da, ushbu yondashuv bank kapitali yetarliligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Operatsion risklarni boshqarish tizimining samaradorligi, avvalo, bankda shakllangan korporativ boshqaruv va risk madaniyatiga bevosita bog'liq. Risk madaniyati xodimlarning risklarga nisbatan munosabati, ichki qoidalarga rioya etish darajasi va mas'uliyat hissi bilan belgilanadi. Nazariy jihatdan, risk madaniyati yuqori bo'lgan banklarda operatsion risklar kamroq moliyaviy yo'qotishlarga olib keladi, chunki xatoliklar erta aniqlanadi va tezkor choralar ko'riladi. Shu bois, operatsion risklarni boshqarish faqat texnik mexanizmlar bilan cheklanib qolmasdan, inson omiliga ham alohida e'tibor qaratishni talab etadi (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklarida operatsion risklarning asosiy manbalari va ularni boshqarish mexanizmlari [11]¹

Operatsion risk manbasi	Riskning mazmuni	Bank faoliyatiga ta'siri	Boshqarish mexanizmlari
Ichki jarayonlar	Reglamentlarning nomukammalligi, jarayonlar o'rtasidagi nomuvofiqlik	Operatsion uzilishlar, moliyaviy yo'qotishlar	Jarayonlarni standartlashtirish, ichki nazoratni kuchaytirish
Inson omili	Xodimlar xatolari, malaka yetishmasligi, firibgarlik holatlari	Moliyaviy zarar, reputatsion risk	Treninglar, funksional ajratish, nazorat mexanizmlari
Axborot texnologiyalari	Tizim nosozliklari, kiberxavfsizlik tahdidlari	Operatsion faoliyatning to'xtashi, ma'lumotlar yo'qotilishi	IT-audit, zaxira tizimlari, kiberxavfsizlik siyosati
Tashqi omillar	Qonunchilikdagi o'zgarishlar, tabiiy ofatlar, tashqi firibgarlik	Kutilmagan yo'qotishlar, jarimalar	Sug'urtalash, moslashuvchan boshqaruv siyosati

1 Muallif ishlanmasi



1-jadvalda tijorat banklarida operatsion risklarning asosiy manbalari hamda ularni boshqarish mexanizmlari tizimli ravishda aks ettirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, operatsion risklar bank faoliyatida asosan ichki jarayonlar, inson omili, axborot texnologiyalari va tashqi omillar bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi. Ichki jarayonlar bilan bog'liq risklar reglamentlarning yetarli darajada mukammal emasligi va jarayonlar o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga kelib, operatsion uzilishlar hamda moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Inson omiliga oid risklar esa xodimlar malakasining pastligi, nazoratning sustligi yoki firibgarlik holatlari bilan izohlanadi va bankning nafaqat moliyaviy holatiga, balki obro'siga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Axborot texnologiyalari bilan bog'liq risklar zamonaviy bank tizimida alohida ahamiyat kasb etib, tizim nosozliklari va kiberxavfsizlik tahdidlari operatsion faoliyatning to'xtab qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Tashqi omillar bilan bog'liq risklar esa bank nazoratidan tashqarida shakllanib, kutilmagan moliyaviy yo'qotishlar va jarimalarga olib keladi. Jadvalda keltirilgan boshqarish mexanizmlari ushbu risklarni minimallashtirishga qaratilgan bo'lib, ularni kompleks qo'llash banklarning operatsion barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro bank amaliyotida operatsion risklarni boshqarish bo'yicha yagona yondashuvlar shakllangan bo'lib, ular banklar faoliyatini standartlashtirishga xizmat qiladi. Bu borada Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar muhim nazariy asos hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, operatsion risklar noto'g'ri yoki yetarli darajada ishlamaydigan ichki jarayonlar, odamlar va tizimlar yoxud tashqi hodisalar natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar ehtimoli sifatida talqin etiladi. Mazkur ta'rif operatsion risklarning keng qamrovli va kompleks xususiyatga egaligini yaqqol ifodalaydi.

Operatsion risklarni boshqarish jarayonida ichki nazorat tizimi muhim o'rin tutadi. Ichki nazorat mexanizmlari bank faoliyatidagi xatoliklar va qonunbuzarliklarning oldini olishga, mavjud risklarni o'z vaqtida aniqlashga xizmat qiladi. Nazariy jihatdan samarali ichki nazorat tizimi uch asosiy komponentga tayanadi: protseduralar va reglamentlar, axborot oqimlarining shaffofligi hamda mas'uliyatning aniq taqsimlanishi. Ushbu komponentlarning uyg'unligi operatsion risklarning kamayishiga olib keladi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi operatsion risklar tabiatiga yangi jihatlarni olib kirdi. Bir tomondan, avtomatlashtirilgan tizimlar inson xatolarini kamaytirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, texnik nosozliklar, kiberxavfsizlik tahdidlari va ma'lumotlar yo'qotilishi bilan bog'liq yangi risklarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli nazariy jihatdan operatsion risklarni boshqarish axborot xavfsizligi va IT-risk menejment bilan chambarchas bog'liq holda qaralishi lozim. Banklar uchun axborot tizimlarining uzluksiz ishlashi operatsion barqarorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Operatsion risklarni monitoring qilish jarayoni risklarni boshqarish tizimining uzluksizligini ta'minlaydi. Monitoring orqali risk ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar doimiy kuzatilib, potentsial xavf manbalari aniqlanadi. Nazariy yondashuvga ko'ra, samarali monitoring tizimi risk indikatorlari, ichki hisobotlar va muntazam audit natijalariga asoslanishi kerak. Bu esa bank rahbariyatiga tezkor va asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Operatsion risklarni kamaytirish strategiyalari nazariy jihatdan diversifikatsiya, sug'urtalash, jarayonlarni optimallashtirish va xodimlar malakasini oshirish kabi choralarni o'z ichiga oladi. Ushbu strategiyalar bankning umumiy risk profiliga mos holda tanlanadi. Operatsion risklarni to'liq bartaraf etish amalda imkonsiz bo'lsa-da, ularni maqbul darajada ushlab turish bank barqarorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval. Tijorat banklarida operatsion risklarni baholash va boshqarishning asosiy usullari [12]²

Yondashuv turi	Qo'llaniladigan usullar	Afzalliklari	Cheklovleri
Sifat yondashuvi	Ekspert baholari, ichki so'rovnomalar, risk xaritalari	Tezkor, moslashuvchan, ma'lumot kam bo'lganda samarali	Subyektivlik yuqori, aniq miqdoriy natija bermaydi
Miqdoriy yondashuv	Statistik tahlil, tarixiy yo'qotishlar ma'lumotlari	Aniqroq baholash, kapital rejalashtirish uchun qulay	Ma'lumotlar bazasi talab etiladi
Ssenariy tahlili	Ekstremal holatlarni modellash	Kutilmagan yo'qotishlarni oldindan baholash imkoniyati	Yuqori murakkablik, vaqt talab etadi
Integratsiyalashgan yondashuv	Sifat va miqdoriy usullar uyg'unligi	Eng ishonchli va kompleks natija	Resurs va malaka talabi yuqori

2-jadvalda tijorat banklarida operatsion risklarni baholash va boshqarishda qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar taqqoslab ko'rsatilgan. Jadvaldan ko'rinadiki, sifat yondashuvi ma'lumotlar yetishmagan sharoitda tezkor qarorlar qabul qilish imkonini bersa-da, subyektivlik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Miqdoriy yondashuv esa tarixiy ma'lumotlarga asoslangan holda risklarni aniqroq baholashga xizmat qiladi, biroq bu

2 Muallif ishlanmasi



usul keng statistik baza mavjudligini talab etadi. Ssenariy tahlili kutilmagan va ekstremal holatlarni oldindan baholash imkonini berib, operatsion risklarning potensial oqibatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiyalashgan yondashuv sifat va miqdoriy usullarni uyg'unlashtirgan holda eng ishonchli natijalarni ta'minlaydi hamda banklarda operatsion risklarni samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, tijorat banklarida operatsion risklarni boshqarishning nazariy asoslari bank risk menejment tizimining ajralmas qismi bo'lib, u moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, yo'qotishlarni minimallashtirish va bank faoliyatining uzluksizligini kafolatlashga xizmat qiladi. Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, operatsion risklarni boshqarish kompleks, tizimli va doimiy takomillashtirib boriladigan jarayon sifatida qaralishi lozim. Shu orqali tijorat banklari zamonaviy moliyaviy muhitda raqobatbardoshligini saqlab qolishi va uzoq muddatli rivojlanishga erishishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida operatsion risklarni boshqarish bank tizimining moliyaviy barqarorligi va uzluksiz faoliyatini ta'minlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida operatsion risklar bank faoliyatining barcha yo'nalishlariga ta'sir etuvchi kompleks risk turi bo'lib, ularni samarali boshqarish faqat alohida mexanizmlar orqali emas, balki yaxlit va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilishi zarurligi asoslandi. Operatsion risklarning ichki jarayonlar, inson omili, axborot texnologiyalari va tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligi ularni doimiy monitoring qilish va boshqaruv tizimini muntazam takomillashtirib borishni talab etadi.

Sohani rivojlantirish nuqtayi nazaridan, tijorat banklarida operatsion risklarni boshqarish tizimini xalqaro standartlar va ilg'or amaliyotlar asosida yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, risklarni aniqlash va baholashda raqamli texnologiyalar va ma'lumotlarga asoslangan tahliliy yondashuvlardan kengroq foydalanish, ichki nazorat va audit tizimlarini kuchaytirish, xodimlarning risk madaniyatini oshirishga qaratilgan doimiy treninglarni yo'lga qo'yish zarur. Shuningdek, axborot xavfsizligini mustahkamlash va IT-infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali texnologik operatsion risklarni kamaytirish banklar barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlar operatsion risklarni samarali boshqarish orqali tijorat banklarining raqobatbardoshligini va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J. Hull. Risk Management and Financial Institutions. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2018.-760 p.
2. P. Jorion. Value at Risk: The New Benchmark for Managing Financial Risk. – New York: McGraw-Hill, 2007.-592 p.
3. R. Crouhy, D. Galai, M. Mark. The Essentials of Risk Management. – New York: McGraw-Hill, 2014.-480 p.
4. M. Power. The Risk Management of Everything. – London: Demos, 2004.-156 p.
5. Basel Committee on Banking Supervision. Sound Practices: The Management and Supervision of Operational Risk. – Basel: BIS, 2011.-56 p.
6. Basel Committee on Banking Supervision. International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards (Basel II). – Basel: BIS, 2006.-347 p.
7. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems. – Basel: BIS, 2011.-77 p.
8. P. Moosa. Operational Risk Management. – London: Palgrave Macmillan, 2008.-260 p.
9. J. Lam. Enterprise Risk Management: From Incentives to Controls. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2014.-640 p.
10. A. McNeil, R. Frey, P. Embrechts. Quantitative Risk Management. – Princeton: Princeton University Press, 2015.-538 p.
11. E. Vaughan, T. Vaughan. Fundamentals of Risk and Insurance. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2013.-720 p.
12. G. Dionne. Handbook of Insurance. – New York: Springer, 2013.-812 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>